| <b>H.S. Bobojonov</b>                                                                                                                                                                                             |     |
| OLIY TA'LIM TIZIMIGA XORIJIY INVESTITSİYALAR JALB QILISHNING<br>USLUBIY ASOSLARI.....                                                                                                                             | 294 |
| <b>Mamanazarov A.A.</b>                                                                                                                                                                                           |     |
| OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH SALOHİYATINI<br>BOSHQARISH VA ISHLAB CHIQRISH XAVFSIZLIGI TA'MINLASHNING<br>METODOLOGIK JIHLATLARI.....                                                          | 299 |
| <b>Gulmatov Sunnatillo Nurillayevich</b>                                                                                                                                                                          |     |
| BIOLOGIK AKTIVLAR SINTETIK VA ANALITIK HISOBINI TASHKIL ETISHDA<br>ISHCHI HISOBVARAQLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                                                          | 308 |
| <b>Axmetova Salima Seytovna</b>                                                                                                                                                                                   |     |



|                                                                                                                                                                    |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| HUDUD IQTISODIYOTIGA "YASHIL INVESTITSİYALAR"NI JALB QILISH<br>MEXANIZMLARINING USLUBIY JIHATLARI.....                                                             | 313 |
| <b>To'xtayev Maqsud Mansurovich</b>                                                                                                                                |     |
| TURIZM SOXASIDA XIZMATLAR SIFATIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR<br>(SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA).....                                                             | 321 |
| <b>Suyunov R.G'.</b>                                                                                                                                               |     |
| SOLIQ MA'MURCHILIGI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY<br>TEXNOLOGIYALARINING JORIY ETISH ISTIQBOLLARI .....                                           | 326 |
| <b>Turdaliyev Eldor Sho'xratjon o'g'li</b>                                                                                                                         |     |
| AGROKLASTERLAR FAOLIYATINI RAQAMLI BOSHQARUV MEXANIZMLARI ASOSIDA<br>SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH.....                                                      | 334 |
| <b>Berdiyev Abdumalik Hakimovich</b>                                                                                                                               |     |
| AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI STATISTIK TADQIQ ETISHDA<br>KUZATUVLARNING O'RNI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....                                                   | 340 |
| <b>Siroj Zarina Rustambekovna</b>                                                                                                                                  |     |
| MECHANISMS FOR INCREASING THE EFFECTIVENESS OF USING ISLAMIC<br>FINANCE INSTRUMENTS IN SMALL BUSINESS DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN.....                               | 347 |
| <b>Toshxo'jayev Abduqodirxon Abdulmanurxon ugli</b>                                                                                                                |     |
| KORPORATIV BOSHQARUVNING IQTISODIY MAZMUNI VA QURILISH KORXONALARI<br>FAOLIYATIDAGI INSTITUTSIONAL AHAMIYATI .....                                                 | 354 |
| <b>G'iyosov Ilxom Karimovich</b>                                                                                                                                   |     |
| FORECASTING OF AGRICULTURAL PRODUCTION INDICATORS IN<br>SURKHANDARYA REGION USING THE ARIMA MODEL.....                                                             | 361 |
| <b>Abdurayimov Kamoliddin Khurram oglu</b>                                                                                                                         |     |
| BARQAROR HOSILDORLIKNI TA'MINLASHNING IQTISODIY<br>YONDASHUVLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....                                                                 | 369 |
| <b>Turayeva Gulizahro</b>                                                                                                                                          |     |
| INNOVATION EKOTIZIMDA FAN-TA'LIM-ISHLAB CHIQUV<br>INTEGRATSIYASINING IQTISODIY JIHATLARI .....                                                                     | 374 |
| <b>Uzaydullayev Sherzod Shukurullayevich</b>                                                                                                                       |     |
| INSON KAPITALIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING<br>INTEGRAL INDEKSINI SHAKLLANTIRISH VA UNING HUDUDIY IQTISODIY O'SISHNI<br>BAHOLASHDAGI AHAMIYATI..... | 378 |
| <b>Yusubboyeva Dinora Qudrat qizi</b>                                                                                                                              |     |
| OHAK TOSH QAZIB OLISH JARAYONIDA ATROF MUHITDAGI ZARARI VA OLDINI OLISH.....                                                                                       | 386 |
| <b>Kaxorov Ulug'bek</b>                                                                                                                                            |     |
| DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARIDA MOLIVAVIY RISKLARNI BAHOLASH VA<br>BOSHQARISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA XALQARO YONDASHUVLAR (2019-2025 YILLAR) .....        | 389 |
| <b>Abdukarimov Akbar G'anisherovich</b>                                                                                                                            |     |
| KORXONALAR FAOLIYATINI INNOVATION RIVOJLANTIRISHNI IMITATION<br>MODELLASHTIRISH.....                                                                               | 393 |
| <b>Raximov Azizbek Zokirovich</b>                                                                                                                                  |     |
| OROLBO'YI MINTAQASIDA YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA TA'LIM<br>XIZMATLARI SIFATINING TAHLILI.....                                                                        | 400 |
| <b>Raxmanov Raxmanbergan Abdullaevich</b>                                                                                                                          |     |
| TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH<br>ORQALI ISHLAB CHIQUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING<br>STRATEGIK YO'NALISHLARI.....                 | 404 |
| <b>Kodirova Xurshida Ismoilovna</b>                                                                                                                                |     |
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA INNOVATION MENEJMENT<br>TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI .....                                                           | 409 |
| <b>Yusupov Ulug'bek Shukurullayevich</b>                                                                                                                           |     |
| <b>Omonov Abdurazzoq Komil o'g'li</b>                                                                                                                              |     |



|                                                                                                                                            |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| KREATIV IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI O'RTASIDAGI<br>O'ZARO BOG'LIQLIKNI BAHOLASH.....                                    | 416 |
| <b>Xamidova Soro</b>                                                                                                                       |     |
| <b>Toshpulatova Laylo</b>                                                                                                                  |     |
| DIGITALLY-ENABLED COMMUNITY AGRITOURISM AS A PATHWAY TO RURAL<br>INCOME IN THE ARAL SEA REGION: A CONCEPTUAL APPROACH.....                 | 423 |
| <b>Mariya Bekimbetova</b>                                                                                                                  |     |
| SIFAT MENEJMENTI TIZIMIGA INTEGRATSIYALASHGAN XODIMLARNI RAG'BATLANTIRISH<br>MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI ..... | 427 |
| <b>Qurbonova Dilafruz Anvarjon qizi</b>                                                                                                    |     |
| SANOAT ZONALARIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INFRATUZILMAVIY<br>RESURLARNI BOSHQARISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....                 | 431 |
| <b>Arifbayev Bobir Dilshodovich</b>                                                                                                        |     |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSİYALARNI SUG'URTALASHDAGI<br>AMALIY MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH ISTIQBOLLARI .....              | 439 |
| <b>Kengesbaeva Suliuxan Maxsetbay qizi</b>                                                                                                 |     |



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSİYALARNI SUG'URTALASHDAGI AMALIY MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH ISTIQBOLLARI



**Kengesbaeva Suliuxan Maxsetbay qizi**  
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti  
Moliya, pul muomalasi va kredit ixtisosligi bo'yicha 1-bosqich  
doktoranti  
E-mail: [suliukhankengesbaeva@gmail.com](mailto:suliukhankengesbaeva@gmail.com)  
ORCID: 0009-0006-2734-8981

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda ularni siyosiy va iqtisodiy risklardan himoya qilishda sug'urta tizimining o'rnini tahlil qilinadi. Investitsion muhit barqarorligini ta'minlash, investorlar ishonchini oshirish va milliy iqtisodiyotga xorijiy kapital oqimini jadallashtirishda sug'urta mexanizmlari muhim ahamiyatga ega. Maqolada xalqaro sug'urta tajribasi, xususan, Ko'p tomonlama investitsiyalarni kafolatlash agentligi (MIGA) faoliyati hamda xorijiy investitsiyalarni sug'urtalashning huquqiy-iqtisodiy asoslari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida investitsiyalarni sug'urtalash bozorining holati va mavjud muammolar tahlil qilinib, sug'urta tizimini xalqaro andozalar asosida takomillashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** xorijiy investitsiyalar, sug'urta bozori, siyosiy risklar, iqtisodiy barqarorlik, MIGA, investitsiya kafolati, risklarni boshqarish, eksport-import.

**Abstract.** This article analyzes the role of the insurance system in attracting foreign investment and protecting it against political and economic risks. Insurance mechanisms are of particular importance in ensuring the stability of the investment environment, strengthening investor confidence, and accelerating the inflow of foreign capital into the national economy. The article examines international insurance practices, particularly the activities of the Multilateral Investment Guarantee Agency (MIGA), as well as the legal and economic foundations of foreign investment insurance. It also analyzes the current state of the investment insurance market in the Republic of Uzbekistan and its existing challenges and develops practical proposals and recommendations for improving the insurance system in accordance with international standards.

**Keywords:** foreign investment, insurance market, political risks, economic stability, MIGA, investment guarantee, risk management, export-import.

**Аннотация.** В данной научной статье анализируется роль системы страхования в привлечении иностранных инвестиций и их защите от политических и экономических рисков. Страховые механизмы имеют важное значение для обеспечения стабильности инвестиционной среды, повышения доверия инвесторов и ускорения притока иностранного капитала в национальную экономику. В статье рассмотрен международный опыт страхования, в частности деятельность Многостороннего агентства по гарантиям инвестиций (MIGA), а также правовые и экономические основы страхования иностранных инвестиций. Кроме того, проанализированы современное состояние рынка страхования инвестиций в Республике Узбекистан и существующие проблемы, а также разработаны практические предложения и рекомендации по совершенствованию системы страхования на основе международных стандартов.

**Ключевые слова:** иностранные инвестиции, страховой рынок, политические риски, экономическая стабильность, MIGA, инвестиционные гарантии, управление рисками, экспорт-импорт.



## KIRISH

Global iqtisodiyot integratsiyalashuvi sharoitida har bir mamlakat o'z milliy iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash maqsadida xorijiy kapitalni jalb etishga intiladi. Xorijiy investitsiyalar nafaqat moliyaviy resurslar manbai, balki yangi texnologiyalar, innovatsion boshqaruv tajribasi va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatini taqdim etuvchi muhim omildir [1]. Biroq kapital harakati doimo turli xil iqtisodiy va siyosiy risklar bilan bog'liq bo'lib, investorlar uchun asosiy maqsad nafaqat foyda olish, balki kiritilgan mablag'larning xavfsizligini ta'minlash hisoblanadi.

Rivojlanayotgan va o'tish davri iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlarda xorijiy investorlar duch keladigan risklar darajasi ancha yuqori bo'lishi mumkin [2]. Siyosiy beqarorlik, ekspropriatsiya (mulkning davlat tomonidan tortib olinishi), valyuta konvertatsiyasidagi cheklovlar, urush va fuqarolik tartibsizliklari, shuningdek, shartnoma majburiyatlarining hukumatlar tomonidan bajarilmasligi kabi holatlar xorijiy investitsiyalar oqimiga to'g'ridan-to'g'ri salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mana shunday sharoitda xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash tizimi investorlar risklarini minimallashtiruvchi va investitsion muhit jozibadorligini oshiruvchi universal bozor mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi [3].

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, qulay investitsiya muhitini yaratish va xorijiy sarmoyadorlarni jalb etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash va investorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan [4]. Shu bilan birga, milliy sug'urta bozorining investitsion risklarni qoplash imkoniyatlarini xalqaro talablar asosida yanada rivojlantirish zarur. Shu sababli xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash tizimini takomillashtirish, sug'urta kompaniyalarining kapitallashuv darajasini oshirish va xalqaro qayta sug'urta bozorlariga integratsiyalashuv masalalari dolzarb hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ularni sug'urtalash orqali risklarni boshqarish masalalari uzoq yillardan buyon ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etib kelinmoqda. Investitsion risklar nazariyasi va ularni sug'urtaviy himoya qilish mexanizmlari bo'yicha G'arb iqtisodchilari, jumladan, P. Krugman, J. Stiglits va F. Knight o'zlarining fundamental asarlarida risk va noaniqlik sharoitida kapital harakati qonuniyatlarini ochib berganlar [1–3]. Ularning fikricha, sug'urta tizimi noaniqlik darajasini pasaytirish orqali kapitalning transchegaraviy oqimini rag'batlantiradi.

Investitsiyalarni siyosiy risklardan sug'urtalash va bu borada xalqaro tashkilotlarning roli masalalari xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasida keng o'rganilgan. Xususan, Jahon banki guruhi tarkibiga kiruvchi Ko'p tomonlama investitsiyalarni kafolatlash agentligi (MIGA) tadqiqotlarida siyosiy risklarni sug'urtalash rivojlanayotgan davlatlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga ko'maklashuvchi samarali vositalardan biri sifatida baholangan [5].

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari va mahalliy olimlar doirasida ham ushbu yo'nalishda qator ilmiy ishlar olib borilgan. Masalan, L. A. Moiseeva o'zining investitsiyalarga bag'ishlangan o'quv qo'llanmalarida xorijiy investitsiyalar infratuzilmasini rivojlantirish va ularni sug'urtalash tizimining tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tahlil qilgan [6]. O'zbekistonlik olimlardan A. V. Vahobov va A. S. Jo'rayevlar soliq va moliya tizimi doirasida investitsion faollikni oshirish masalalarini tadqiq etgan bo'lsalar, sug'urta bozorini rivojlantirish borasida milliy iqtisodchilarimiz sug'urta xizmatlari turlarini kengaytirish va xorijiy kapital ishtirokidagi sug'urta kompaniyalari rolini oshirish zarurligini ta'kidlaydilar [7]. Biroq aynan xorijiy investitsiyalarni milliy va xalqaro darajada sug'urtalash mexanizmlarining o'zaro integratsiyasi hamda raqamli texnologiyalarni (FinTech) ushbu sohaga joriy etish masalalari hali ham yetarlicha to'liq yoritilmagan va qo'shimcha tadqiqotlarni talab etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotni olib borishda ilmiy bilishning obyektivlik, tizimlilik, izchillik va qiyosiy tahlil metodlaridan keng foydalanildi. Xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash tizimining hozirgi holatini baholash maqsadida statistik ma'lumotlar guruhlashtirildi va dinamik tahlil o'tkazildi. Tizimli yondashuv asosida xorijiy investorlar duch keladigan risklar tasniflandi va ularni bartaraf etishda amaldagi milliy sug'urta qoplamalari darajasi o'rganildi.

Shuningdek, xalqaro tajribani o'rganish doirasida MIGA va boshqa yetakchi xalqaro sug'urta tashkilotlarining uslubiy yondashuvlari qiyosiy-huquqiy va iqtisodiy jihatdan tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida mamlakatimiz iqtisodiyotiga mos keladigan sug'urta modellarini shakllantirish bo'yicha ekonometrik modellashtirish prinsiplaridan foydalanildi.



## TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash tizimi, asosan, ikki darajada amalga oshiriladi: milliy sug'urta tashkilotlari hamda xalqaro kafolat agentliklari tomonidan. O'zbekiston sug'urta bozorida faoliyat ko'rsatayotgan kompaniyalar tomonidan xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash, asosan, an'anaviy mulkiy sug'urta yoki qurilish-montaj risklarini sug'urtalash shaklida amalga oshirilmoqda. Biroq investorlar uchun muhim hisoblangan siyosiy risklarni, jumladan, konvertatsiya cheklovlari, urush xavfi va qonunchilikdagi kutilmagan o'zgarishlarni qoplash uchun milliy sug'urta kompaniyalarining moliyaviy imkoniyatlari yetarli darajada shakllanmagan.

1-jadval

Xorijiy investitsiyalarni sug'urtalashda asosiy risk turlari va ularni qoplash mexanizmlari<sup>1</sup>

| Risk turi                              | Tavsifi va iqtisodiy ta'siri                                                                                                                                                 | Xalqaro amaliyot (MIGA) bo'yicha yechim                                                              | O'zbekiston bozoridagi holat                                                                                                  |
|----------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Valyuta transferi riski                | Investorning o'z foydasini xorijiy valyutaga erkin konvertatsiya qila olmasligi va chet elga o'tkaza olmasligi.                                                              | 100 foizgacha sug'urta qoplamasi va valyuta ayirboshlash kafolati beriladi.                          | Qisman tartibga solingan, ammo yirik hajmdagi investitsiyalar uchun uzoq muddatli kafolatlar yetishmaydi.                     |
| Ekspropriatsiya riski                  | Investor mulki yoki aktivlariga egalik qilish, ulardan foydalanish yoxud ularni tasarruf etish huquqining davlat organlari qarorlari asosida to'liq yoki qisman cheklanishi. | Ko'rilgan zararni qoplash va xalqaro arbitraj qarorlari asosida sug'urta to'lovlari amalga oshirish. | Konstitutsiyaviy kafolatlar mavjud, biroq sug'urta kompaniyalarining bunday polislar berish amaliyoti shakllanmagan.          |
| Urush va fuqarolik tartibsizliklari    | Qurolli mojarolar, terrorchilik harakatlari va fuqarolik tartibsizliklari natijasida investor aktivlarining shikastlanishi yoki faoliyatning to'xtashi.                      | Biznes faoliyatining to'xtab qolishi natijasida yuzaga kelgan bilvosita zararlarni ham qoplash.      | Fors-major holatlari sifatida shartnomalarda ko'rsatiladi, ammo sug'urta to'lovlari amaliyoti juda kam.                       |
| Shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik | Davlat yoki davlat organlari tomonidan investor bilan tuzilgan bitimlar shartlarining buzilishi.                                                                             | Arbitraj qaroridan so'ng to'lovlarni amalga oshirish kafolati.                                       | Tegishli huquqiy mexanizmlar mavjud, biroq sug'urta tizimi orqali moliyaviy himoya qilish amaliyoti yetarlicha rivojlanmagan. |

Tahlillar xorijiy investitsiyalarni siyosiy va tizimli risklardan sug'urtalash amaliyotining mamlakatimizda nisbatan cheklanganligini ko'rsatadi. Mazkur holat investitsiyalarni sug'urtalash tizimini yanada takomillashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash ko'lamining nisbatan cheklanganligi bir qator moliyaviy, institutsional va tashkiliy omillar bilan bog'liq. Birinchidan, mahalliy sug'urta kompaniyalarining ustav kapitalari va moliyaviy barqarorligi yirik investitsion loyihalarni mustaqil ravishda sug'urtalashga imkon bermaydi. Bunday sharoitda qayta sug'urta (Reinsurance) mexanizmlaridan foydalanish zarur, biroq xalqaro qayta sug'urta kompaniyalari bilan aloqalar hali ham yetarlicha rivojlanmagan.

Ikkinchidan, sug'urta bozorida raqamli moliya texnologiyalarining yetarli darajada joriy etilmaganligi sug'urta risklarini tezkor baholash jarayonini qiyinlashtiradi. Blokcheyn va aqlli shartnomalar asosida sug'urta polislarini rasmiylashtirish hamda risklarni diversifikatsiya qilish investorlar uchun shaffoflikni oshirishga xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni siyosiy risklardan sug'urtalashga oid normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish xorijiy sug'urta tashkilotlarining milliy bozorga kirib kelishi uchun qulay sharoit yaratadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar va xalqaro tajriba tahlili asosida O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

**Davlat-xususiy sheriklik asosida Maxsus investitsion sug'urta jamg'armasini tashkil etish:** Ushbu jamg'arma davlat tashkilotlari va yirik xalqaro sug'urta kompaniyalari ishtirokida tashkil etilib, xorijiy investorlarga, avvalo, siyosiy risklar bo'yicha kafolatlar taqdim etishga ixtisoslashtirilishi lozim.

<sup>1</sup> Manba: MIGA ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



**MIGA va boshqa xalqaro kafolat agentliklari bilan integratsiyani chuqurlashtirish:** mahalliy sug'urta kompaniyalarining xalqaro miqyosdagi reytinglarini oshirish orqali yirik loyihalarni birgalikda (co-insurance) sug'urtalash amaliyotini yo'lga qo'yish.

**Sug'urtada raqamli texnologiyalarni (InsurTech) qo'llash:** risklarni baholash tizimini avtomatlashtirish, investorlar uchun masofaviy sug'urta xizmatlarini ko'rsatish va blokcheyn tizimini joriy etish orqali shaffoflikni oshirish.

**Qonunchilik bazasini takomillashtirish:** investitsiyalarni sug'urtalash sohasidagi normativ-huquqiy asoslarni rivojlantirish, investorlar huquqlarini himoya qilish hamda sug'urta to'lovlarini amalga oshirish mexanizmlarini aniq belgilash.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash tizimini takomillashtirish O'zbekiston iqtisodiyotiga uzoq muddatli va barqaror strategik investitsiyalarni jalb etishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Krugman, P. R., Obstfeld, M., & Melitz, M. J. (2022). *International Economics: Theory and Policy* (12th ed.). Pearson.
2. Stiglitz, J. E. (2017). *Globalization and Its Discontents Revisited: Anti-Globalization in the Era of Trump*. New York: W. W. Norton & Company. 528 p.
3. Knight, F. H. (2006). *Risk, Uncertainty and Profit*. Mineola, NY: Dover Publications.
4. Mirziyoyev, Sh. M. (2022). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2022-yil 20-dekabr. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/5774>
5. Nebe, M., Economou, P., & Abruzzese, L. (2024). *Shifting Shores: FDI Relocations and Political Risk*. Washington, DC: Multilateral Investment Guarantee Agency, World Bank.
6. Moiseeva, L. A. (2023). *Inostrannye investitsii: uchebnoe posobie*. Nashr joyi va nashriyoti ko'rsatilmagan.
7. Vahobov, A. V., & Jo'rayev, A. S. (2009). *Soliqlar va soliqqa tortish: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik*. Toshkent: Sharq. 448 b.
8. Ibroximov, N. I. (2025). Raqamli moliya (FinTech) vositalari yordamida xo'jalik subyektlari barqarorligini mustahkamlash. *Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot: konferensiya materiallari*. Namangan.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 7/1**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>